



AUDITORLIK TEKSHIRUVI VA AUDITORLIK XULOSASINING NAZARIY
MAZMUNI

Ubaydullayev Toxirjon Abdullajanovich

Namangan davlat texnika universiteti Buxgalteriya hisobi kafedrası o'qituvchisi ORCID: 0009-0005-7364-2105

Annotasiya: Bozor iqtisodiyoti sharoitida xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining murakkablashuvi, moliyaviy munosabatlar ko'lamining kengayishi hamda manfaatdor tomonlar sonining ortishi moliyaviy axborotning ishonchliligini ta'minlash masalasini dolzarb qilib qo'ymoqda. Aynan shu sharoitda auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobotlarning haqqoniyliги va qonunchilik hamda belgilangan standartlarga muvofiqligini mustaqil baholashga qaratilgan nazariy va amaliy mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Auditorlik xulosasi esa auditorlik tekshiruvining yakuniy natijasi bo'lib, moliyaviy axborotdan foydalanuvchilar uchun muhim axborot manbai vazifasini bajaradi.

Kalit so'zlar: Bozor iqtisodiyoti, auditorlik xulosasi, auditorlik tekshiruvi, moliyaviy axborot, majburiy va tashabbus tarzidagi auditorlik.

Auditorlik tekshiruvi va auditorlik xulosasining nazariy mazmunini o'rganish auditning iqtisodiy mohiyatini, uning funksiyalari va axborot qiymatini chuqur anglash imkonini beradi. Mazkur tushunchalar auditorlik faoliyatining metodologik asoslarini belgilabgina qolmay, auditorlik xulosasining ishonchliligi, xolisligi va foydalanuvchilar uchun qaror qabul qilishdagi ahamiyatini ham aniqlaydi. Shu bois ushbu bo'limda auditorlik tekshiruvining mazmuni, vazifalari hamda auditorlik xulosasining nazariy asoslari tizimli yondashuv asosida yoritiladi.

Auditorlik tekshiruvi qay tarzda o'tkazilishiga ko'ra majburiy va tashabbus tarzidagi (ixtiyoriy) auditorlik tekshiruvlarga bo'linadi. Shuningdek, auditorlik tekshiruvi nazorat qiluvchi yoki huquqni muhofaza qilish organlarining tashabbusiga ko'ra ham o'tkazilishi mumkin.

«Auditorlik faoliyati to'g'risida»gi Qonunga muvofiq faoliyat turiga ko'ra quyidagi iqtisodiy subyektlar har yili majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazilishi kerak:

- aksiyadorlik jamiyatlari;
- banklar va boshqa kredit tashkilotlari;
- sug'urta tashkilotlari;
- investitsiya fondlari hamda yuridik va jismoniy shaxslarning mablag'larini jamlab turuvchi boshqa fondlar hamda ularning boshqaruv kompaniyalari;
- manbalari yuridik va jismoniy shaxslarning ixtiyoriy badallari bo'lmish xayriya fondlari va boshqa ijtimoiy fondlar;
- mablag'larning hosil bo'lish manbalari qonun hujjatlarida nazarda tutilgan, yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan qilinadigan majburiy ajratmalar bo'lmish budjetdan tashqari fondlar;
- ustav fondida davlatga tegishli ulush bo'lgan xo'jalik yurituvchi subyektlar;



• hisobot yili yakunlariga ko'ra quyidagi shartlardan bir vaqtning o'zida ikkitasiga javob bergan tijorat tashkilotlari: aktivlarining balans qiymati bazaviy hisoblash miqdorining yuz ming baravari miqdoridan ortiq, mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan tushumi bazaviy hisoblash miqdorining ikki yuz ming baravari miqdoridan ortiq, xodimlarining o'rtacha yillik soni yuz nafardan ortiq bo'lsa.

Quyidagi shartlarga muvofiq bo'lgan auditorlik tashkilotlarining ushbu moddaning birinchi qismida ko'rsatilgan tashkilotlarning majburiy auditorlik tekshiruvini o'tkazishiga yo'l qo'yiladi:

shtatida kamida ketma-ket uch yillik uzluksiz ish stajiga yoki xalqaro buxgalter sertifikatiga ega bo'lgan kamida ikki nafar auditorning mavjudligi;

auditorlik tashkilotining ishi sifatini tashqi nazoratdan o'tkazish natijalariga ko'ra, auditorlik faoliyati to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi hollari mavjud emasligi.

Banklarning auditorlik tekshiruvi shtatida banklarning auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish huquqi uchun auditorning malaka sertifikatiga ega bo'lgan kamida ikki nafar auditor mavjud bo'lgan auditorlik tashkilotlari tomonidan o'tkaziladi.

Auditning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, umumlashtirilgan va baholangan tekshiruv natijalarini kamida ikkita hujjat bilan rasmiylashtirish maqsadga muvofiqdir:

1) audit haqidagi shartnomada ko'zda tutilgan davr ichidagi korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini auditorlik tekshiruvidan o'tkazish to'g'risida hisobot;

2) buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobot bo'yicha auditorlik xulosasi.

Auditorlik tekshiruvining natijalari asosida tuzilgan hisobotda korxona moliya-xo'jalik faoliyati va uning natijalarining umumiy ahvoli, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot tuzishning holati, tahlil ishlarining darajasi hamda korxonadagi hisob-tahlil xodimlarining tavsifi aks ettiriladi. Auditorlik hisoboti ma'lumotlari korxonaning bozor sharoitlariga qanday moslashayotganligini va muvaffaqiyatli rivojlanishi hamda foydasini ko'paytira olishga qodirligini yoki aksinchaligini bildirishi lozim. Albatta, tekshirilayotgan korxonadagi ahvol bezab ko'rsatilmadan, auditorga taqdim qilingan axborot haqiqiy bo'lgandagina ehtirolarga berilmagan va real auditorlik hisoboti hamda xulosa shakllanadi.

Auditor hisobotda keltirilgan kamchiliklar bo'yicha ularni bartaraf qilishga karatilgan o'z takliflarini ham ko'rsatib o'tishi lozim. Lekin tekshirilayotgan korxona xodimlariga «yaxshilik» qilish maqsadida auditor shaxsan o'zi dastlabki hujjatlar, hisob registrlari va buxgalteriya hisobotlaridagi xatolarni to'g'rilashi mutlaqo mumkin emas.

Auditor aniqlangan xato yoki kamchiliklar to'g'risida korxona rahbariyatiga bildiradi va ularni tuzatish bo'yicha aniq tavsiyalar beradi.

Agar buxgalterlik (moliyaviy) hisobni yuritish, tegishli hisobotlarni tuzish va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga rioya qilish bo'yicha ko'rsatilgan kamchiliklar audit o'tkazish chog'ida buyurtmachi korxona tomonidan tuzatilmasa, buxgalterlik (moliyaviy) hisobotning ishonchliligini tasdiqlash mumkin emasligi to'g'risida auditorlik tekshiruvining xulosasida yoziladi.

Auditorlik xulosasi buxgalterlik (moliyaviy) hisobotning tarkibiy qismi bo'lib, undan foydalanuvchilar uchun ushbu hisobot ishonchliligi axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi.



Buxgalteriya hisobotidan foydalanuvchilar auditorlik xulosasida bayon qilingan fikrga tayanib, auditorga yoki auditorlik firmasiga ishonch bildiradilar. Ushbu ishonch, eng avvalo, auditor tomonidan bajarilgan ishning sifati bilan qo'lga kiritiladi va oqlanadi.

Auditorlik xulosasi auditor (auditorlar), auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan va auditorlik tashkiloti muhri bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Audit natijalari korxonadagi jarayonlar va moliya-xo'jalik faoliyati natijalarini tashkil etish va hisobga olishni holisona aks ettirishi lozim.

Auditorlik xulosasini auditorlik tashkilotining rahbari yoki auditorlik tashkilotining u vakolat bergan boshqa xodimi imzolaydi va auditorlik firmasi muhri bilan tasdiqlaydi.

Xo'jalik yurituvchi sub'ekt faqat auditorlik xulosasining yakuniy qisminigina manfaatdor shaxslarga taqdim qilishi lozim. Shu munosabat bilan auditorlik xulosasining tahliliy qismi va yakuniy qismi alohida imzolanishi va muhrlanishi mumkin.

Auditorlik hulosasi – bu mustaqil auditor tomonidan mijoz tashkilotning moliyaviy hisobotlari haqida berilgan rasmiy fikr bo'lib, u xalqaro auditorlik standartlari (ISA – International Standards on Auditing) asosida tayyorlanadi.

Auditorlik hulosasi xalqaro auditorlik standarti (ISA 700 – "Moliyaviy hisobot bo'yicha mustaqil auditorning fikri") talablariga muvofiq bo'lishi kerak. Quyidagi asosiy jihatlar auditorlik hulosasida aks ettiriladi:

1. Kirish qismi
 - Audit qilingan tashkilotning nomi.
 - Audit qilingan moliyaviy hisobot davri.
 - Auditorlik kompaniyasining javobgarligi va auditi o'tkazish asoslari.
2. Auditorning fikri
 - Auditor moliyaviy hisobotlarning haqiqiy va xolis tayyorlanganligi haqida xulosa chiqaradi.
 - Auditorlik standarti asosida hisobotning xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) yoki milliy hisob yuritish me'yorlariga mosligini baholaydi.
 - Auditorning ijobiy yoki shartli fikri bildirilishi mumkin.
3. Auditorning javobgarligi
 - Auditor moliyaviy hisobotlarni xolis va mustaqil tahlil qilganligini tasdiqlaydi.
 - Auditing jarayoni ISA talablariga muvofiq o'tkazilganligi haqida ma'lumot beradi.
4. Boshqa muhim ma'lumotlar
 - Auditorlik jarayonida aniqlangan muhim xatarlar yoki cheklovlar (agar mavjud bo'lsa).
 - Qo'shimcha axborotlar yoki tavsiyalar.

Auditorlik hulosasi moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tasdiqlovchi hujjat bo'lib, xalqaro auditorlik standartlariga asoslanadi. Auditorlar o'z fikrlarini dalillar asosida bildirishi va moliyaviy hisobotlarning to'g'riligiga kafolat berishi lozim. Shu sababli, auditorlik jarayoni har tomonlama puxta o'rganib chiqiladi va mustaqil fikr bildiriladi.

Yuqoridagi ma'lumtni yanada aniqroq qilishimiz uchun auditorlik xulosasida auditorlik tashkilotining ijobiy yoki modifikatsiyalangan fikri ifodalanishi mumkin.

ijobiy fikr — bu auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasida ifodalangan xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy hisoboti uning moliyaviy holatini, moliyaviy natijalarini



haqqoniy aks ettirgan va buxgalteriya hisobi togrisidagi qonun talablariga muvofiq kelgan holatdagi fikri;

Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektning moliyaviy hisoboti barcha muhimlik munosabatlarida uning moliyaviy ahvolini, moliyaviy natijalarini haqqoniy aks ettirsa va buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga muvofiq kelgan hollarda ijobiy fikr bildiriladi.

Modifikatsiyalangan fikr — bu auditorlik tashkilotining auditorlik xulosasida quyidagi shakllardan birida ifodalangan fikri: salbiy fikr, izohlar bilan fikr, fikr bildirishni rad etish.

Modifikatsiyalangan fikr quyidagi holatlarda bildiriladi:

- olingan auditorlik dalillari asosida umumiy holda ko‘rilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko‘rsatishlarga ega bo‘lsa;

- umumiy holda ko‘rilayotgan moliyaviy hisobot muhim buzib ko‘rsatishlarga ega emasligini aniqlash uchun yetarli darajadagi tegishli auditorlik dalillarini olish imkoniyati bo‘lmasa. Modifikatsiyalangan fikr bir nechta turga bo‘linadi. Xo‘jalik yurituvchi sub‘yektning moliyaviy hisobotida ahamiyatli buzib ko‘rsatishlar mavjud bo‘lsa va ularning xo‘jalik yurituvchi sub‘yekt tomonidan bartaraf etilmasligi, moliyaviy hisobotdan foydalanuvchilarni chalg‘itishi mumkin bo‘lgan hollarda salbiy fikr bildirilgan auditorlik xulosasi tuziladi. Shuningdek, quyidagi holatlarda ham salbiy fikr bildiriladi:

- xo‘jalik yurituvchi sub‘yekt tomonidan amalga oshirilgan moliya-xo‘jalik operatsiyalari moliyaviy hisobotda haqqoniy aks ettirilgan, lekin ular qonun hujjatlari talablariga muvofiq kelmaganda;

- xo‘jalik yurituvchi sub‘yekt rahbariyati aniqlangan buzib ko‘rsatishlarni bartaraf etish maqsadida moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritishga rozi bo‘lmaganda.

Izohlar bilan fikr bildirilgan auditorlik xulosasi quyidagi hollarda tuziladi:

- agar auditorlik tashkiloti yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olib, alohida-alohida yoki umumiy holda ko‘rib chiqilayotgan buzib ko‘rsatishlarning ta‘siri muhim hisoblanib, biroq moliyaviy hisobotning ko‘pchilik muhim elementlariga ta‘sir qilmaydi degan xulosaga kelganda;

- agar auditorlik tashkiloti o‘z fikrini asoslash uchun yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olish imkoniyatiga ega bo‘lmaganda, biroq u aniqlanmagan buzib ko‘rsatishlarning ta‘siri moliyaviy hisobot uchun muhim bo‘lishi mumkin, lekin moliyaviy hisobotning ko‘pchilik muhim elementlariga ta‘sir qilmaydi degan xulosaga kelganda.

Auditorlik tashkiloti fikr bildirishi uchun zarur bo‘lgan yetarli darajadagi auditorlik dalillarini olish imkoniyati bo‘lmagan taqdirda, fikr bildirishni rad etishi mumkin. Bu holda fikr bildirish rad etilgan auditorlik xulosasi tuziladi.

Auditorlik xulosasining tarkibiy tuzilmasi quyidagi qismlardan iborat:

- auditorlik xulosasining nomi;
- adresati;
- kirish qismi;
- qayd etish qismi;
- yakuniy qismi;



- auditorlik xulosasini berish sanasi;

- auditor (auditorlar) va auditorlik tashkiloti rahbarining imzosi, auditorlik tashkilotining muhri (muhir mavjud bo'lgan taqdirda).

Auditorlik xulosasi raqamlangan, har bir sahifasi auditorlik tekshiruvini amalga oshirgan auditor (auditorlar) va auditorlik tashkilotining rahbari tomonidan imzolangan hamda unga auditorlik tashkilotining fikri qaysi moliyaviy hisobotga nisbatan ifodalangan bo'lsa, o'sha moliyaviy hisobot ilova qilingan bo'lishi kerak.

Xulosa

Auditorlik tekshiruvi va auditorlik xulosasi audit faoliyatining o'zaro uzviy bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi asosiy tarkibiy qismlari hisoblanadi. Auditorlik tekshiruvi moliyaviy hisobotlar va xo'jalik muomalalarining qonunchilik hamda belgilangan standartlarga muvofiqligini mustaqil va xolis baholashga xizmat qilsa, auditorlik xulosasi ushbu baholash natijalarini umumlashtirib, manfaatdor foydalanuvchilarga ishonchli axborot taqdim etadi. Auditorlik xulosasining mazmuni va sifati auditorlik tekshiruvining puxta rejalashtirilishi, yetarli va tegishli auditorlik dalillarining to'planishi hamda auditorning professional mulohazasi bilan bevosita bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, auditorlik tekshiruvi va auditorlik xulosasining nazariy mazmunini chuqur anglash auditning axborot qiymatini oshirish, moliyaviy hisobotlar ishonchligini ta'minlash hamda keyingi boblarda mulkchilik shakllari kesimida auditorlik xulosasini shakllantirish masalalarini asoslash uchun muhim metodologik zamin bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1.Kamolov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2018). Economic Laws And Categories. *Экономика и социум*, (2 (45)), 34-36.

2. Abdulazizovich, K. U. B., & Tursunpolatovna, N. N. (2023). Improving Reflection Of Information About Cash And Equivalents In The Accounting Balance Sheet On The Basis Of International Standards. *Journal of Survey in Fisheries Sciences*, 10, 2107-2114.

3. Ubaydullaev, T., & Holmirzaev, U. (2018). PECULIARITIES OF TAXATION OF INDIVIDUALS IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. *Экономика и социум*, (11 (54)), 54-57.

4. Abdulazizovich, X. U. B. (2024). MOLIVAVIY AKTIVLAR TASNIFINI TAKOMILLASHTIRISH. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 41(2), 82-86.

5. Abdulazizovich, X. U. B. (2023). Moliyaviy aktivlar hisobini yuritishda xalqaro standartlar qoidalarini qo'llash masalalari. *Ilmiy monografiya*. Toshkent-2023.

6. Xolmirzayev, U. A., & Hakimova, G. A. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATION FAOLIYATNI BOSHQARISH TIZIMI. *Экономика и социум*, (5-1 (120)), 938-941.

7. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI. *Journal of new century innovations*, 74(2), 65-70.



8. Abdulazizovich, X. U. B., & Abdullajanovich, U. T. (2024). SANOAT ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT YO 'NALISHLARI. OBYAZOVANIE NAUKA I INNOVATSIONNYYE IDEI V MIRE, 41(5), 17-21.
9. Qutbiddinovich, S. I., & Abdulazizovich, X. U. B. (2023). GAAP ASOSIGA QO'YILGAN MOLIYAVIY HISOB KONTSEPTSIYALARI. Interpretation and researches, 1(3), 42-50.
10. Kamalov, A. A., & Xolmirzayev, U. A. (2016). Small business and private entrepreneurship in Uzbekistan. Questions of Economics and Management, 5(7), 6.
11. Khakimov, B. J., Alimov, B. B., Kholmirzayev, U. A., & Polechov, A. X. (2013). theory of Economic Analysis. Tashkent" economics-finance"—2013.
12. Abdulazizovich, K. U. (2023). POSITIVE ASPECTS OF THE CASH METHOD IN SMALL ENTERPRISES UNDER UNUSUAL CIRCUMSTANCES. ASIA PACIFIC JOURNAL OF MARKETING & MANAGEMENT REVIEW ISSN: 2319-2836 Impact Factor: 8.071, 12(11), 38-47.
13. Xolmirzayev, U. A., & Xakimova, G. A. (2023). XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTlarda DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR: XO'JALIK YURITUVCHI SUB'EKTlarda DEBITOR QARZLARINING AYLANISHI TAHLILIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.
14. Kholmirzaev, U. B. A., & Ubaydullayev, T. A. (2023). Improving the classification of financial assets according to the economic content. Educational Research in Universal Sciences, 2(1), 203-209.
15. Khakimov, J. B., & Kholmirzayev, A. U. (2021). Positive Aspects Of Cash Method In Small Enterprises In The Context Of Pandemic. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(7).
16. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). INNOVASION FAOLIYATNING MOLIYAVIY TA'MINOTINI KUCHAYTIRISH ZARURLIGI VA OMILLARI TAHLILI. Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting, 5(03), 142-146.
17. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti va fan sohasi tushunchalari tizimining xususiyatlari. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(11-12).
18. Xolmirzayev, U. B. (2024). Bilimlar iqtisodiyoti jamiyat taraqqiyotini zamonaviy bosqichining asosidir. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 2(6).
19. Xolmirzayev, U. B., & Xakimova, G. Z. (2024). SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYATNI AMALGA OSHIRISHNING MOLIYAVIY MEXANIZMI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10, 96-98.
20. Xolmirzaev, U. B. A., & Madaliev, M. R. (2023). MOLIVY HISOBOTLARNING QAYTA KO 'RIB CHIQLISHIDA XALQARO TALABLARGA RIOYA ETILISHI ZARURLIGI. Educational research in universal sciences, 2(3), 424-432.
21. Xakimov, B. J., Alimov, B. B., Xolmirzayev, U. A., & Polatov, A. X. (2013). Iqtisodiy tahlil nazariyasi. T: "Iqtisod-Moliya"—2013.
22. Abdulazizovich, X. U. B., & Muhabbat, N. (2024). INCREASING COMPETITIVENESS IN THE COMMODITY MARKET IN INDUSTRIAL



ENTERPRISES. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 42(1), 197-206.

23. Холмирзаев, У. А. (2023). ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ: ДЕБИТОР ҚАРЗЛАРИНИ АЙЛАНИШИ ТАҲЛИЛИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.

24. Холмирзаев, У. А., & Самижонова, Ш. С. (2022). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТРАЖЕНИЯ ДЕНЕГ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 755-766.

25. Холмирзаев, У. А., & Камолдинов, О. О. (2022). АСПЕКТЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕДСТАВЛЕНИЯ ИНФОРМАЦИИ О ДЕБИТОРСКОЙ ЗАДОЛЖЕННОСТИ ПО ОБОРОТНЫМ СРЕДСТВАМ В БУХГАЛТЕРСКОМ БАЛАНСЕ. Экономика и социум, (5-2 (92)), 767-779.

26. Abdulazizovich, X. U. B. (2025). BILIMLAR IQTISODIYOTI SHAKLLANISHINING USTUVOR YO 'NALISHLARI. Journal of new century innovations, 74(2), 65-70.

27. Xolmirzayev, U. B. (2023). Bilimlar iqtisodiyoti shakllanishi evolyutsiyasini tavsiflovchi nazariy yondashuvlar. YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 1(10).

28. Isomukhamedov, A., Kholmirzayev, U., Tursunov, U., Ergashev, I., Aliyeva, G., Karimova, S., & Nadirov, U. (2025). USING AI ENTERPRISE EXPENSES PREDICTION AND BUDGETING MECHANISMS. Reliability: Theory & Applications, 20(SI 10 (88)), 365-371.

29. Xolmirzayev, U. B., & Ubaydullayev, T. O 'zbekiston Respublikasida Davlat-xususiy Sheriklik Sohasida Me'yoriy-huquqiy Bazani Ishlab Chiqish. Green Economy and Development, 3(10), 667114.

30. Batirova, R., & Xolmirzayev, U. B. Ulgurji Savdo Qoidalari Va Chakana Savdodan Farqli Tomonlari. Green Economy and Development, 3(9), 666890.

31. ХОЛМИРЗАЕВ, У., & КАМОЛДИНОВ, О. ЭКОНОМИКА И СОЦИУМ. ЭКОНОМИКА, 625-627.